

OZBEKISTONDA ELEKTRON HUKUMATNI JORIY ETISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONIGA MASS MEDIANING MUNOSABATI

Turgunova Ezoza Ilgor qizi

Xabar.uz axborot-tahliliy portalı muxbiri

Annotatsiya: Ozbekistonda Raqamli hukumatni rivojlantirishning konseptsiyasi allaqachon amalga oshirila boshlangan va birinchi navbatda, fuqarolar va biznes uchun qulay davlat xizmatlari tizimini, davlat bilan ozaro aloqalarni yuqori darajada avtomatlashtirishni, kerakli malumotlarga kirish uchun yagona portalning royxatdan otish jarayonlari yuqori tezligini taminlagan holda jismoniy va yuridik shaxslarga kerakli hujjatlar taqdim etilishi kabilarni kozda tutadi. Bu jarayonlar “Raqamli Ozbekiston-2030” strategiyasi bilan mutahkamlab qoyilgan. Xususan, Raqamli hukumat tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklar, turli xizmatlar haqida, aholi uchun yaratilayotgan qulayliklar haqida xalqimiz mass media orqali boxabar bolishmoqda. Ushbu ilmiy maqolada xalqimiz uzogini yaqin qilib, ortiqcha sarsongarchiliklar va xarajatlarga chek qoyayotgan raqamli xizmatlar va ularning bugungi kunda qanchalik ommalashayotgani haqida bayon etilgan.

Kalit sozlar: *Elektron hukumat, Raqamli texnologiyalar, my.gov.uz, Raqamli Ozbekiston-2030, GovTech, xabar.uz, Open data Inception, OneID.*

Bugungi kunda mamlakatimizda telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, aloqa infratuzilmasini takomillashtirish, Raqamli hukumat tizimining axborot tizimlari va malumotlar bazalarini yaratish, iqtisodiyotni raqamlashtirish kabi masalalarga hukumat darajasida etibor qaratib kelinmoqda.

Raqamli hukumat ozi qanday tizim degan savolga javob beradigan bolsak, u davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qollash yoli bilan davlat xizmatlari korsatishga doir faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni taminlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir. Shu orinda aytish joizki, mazkur tizim mamlakatimizda Ozbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish togrisida”¹⁹ va “Elektron hukumat togrisida”gi²⁰ qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirib kelinmoqda.

¹⁹ Ozbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish togrisida”gi Qonuni, 2003-yil 11-dekabr, ORQ-560-son (keyinchalik kiritilgan ozgartirish va qoshimchalarni hisobga olgan holda) <https://lex.uz/docs/-83472>

²⁰ Ozbekiston Respublikasi “Elektron hukumat togrisida”gi Qonuni, 2015-yil 9-dekabr, ORQ-395-son (keyinchalik kiritilgan ozgartirish va qoshimchalarni hisobga olgan holda) <https://lex.uz/docs/-2833860>



Shuningdek, Ozbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 — 2021-yillarda Ozbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi boyicha xarakatlar strategiyasini “Ilm, marifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi togrisida” 2020-yil 2-martdagি PF-5953-sonli Farmoniga muvofiq elektron hukumatning axborot tizimlari va resurslarining yagona reyestrini yuritish, yagona identifikatorlar, malumotnomalar va tasniflagichlar royxatlarini shakllantirish, malumotlarni boshqarish axborot tizimini joriy qilish orqali raqamli hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining oz faoliyati boyicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.²¹

Shuni ham alohida takidlab otish joizki, Ozbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi raqamli hukumat sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini taminlaydi. Raqamli texnologiyalar vazirligi esa raqamli hukumat sohasidagi vakolatli organ bolib, mazkur sohada yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, Raqamli hukumat tizimi loyihibarini amalga oshirishning meyoriy-metodik taminlanishini tashkil qilish, davlat organlarida foydalanilayotgan axborot tizimlari, axborot resurslari va malumotlar bazalarini ishlab chiqish va integrasiyalashda Raqamli hukumat loyihibarini boshqarish markazi ham ahamiyat kasb etadi. Boshqa Davlat organlari esa elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Shuningdek, “Raqamli hukumat loyihibarini boshqarish markazi” Ozbekistondagi raqamlashtirish jarayonlarini muntazam tahlil qilib, aholi qulayligi uchun elektron davlat xizmatlarini joriy etib boradi. Bir soz bilan aytganda, yurtimizda “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish — bugungi kundagi eng ustuvor vazifalardan biridir. Bu borada esa ommaviy axborot vositalari alohida orin tutadi, jumladan, 2021-yil 23-aprel kuni “Xabar.uz” axborot-tahliliy portalida yoritilgan maqlolada Toshkentdagи Inha universiteti tomonidan elektron hukumatni davlat faoliyatining barcha sohalarida joriy etish yonalishida ishlab chiqilgan kreativ yondashuvlar haqida soz boradi.

Unga kora, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot bilan shugullanuvchi yaxlit tizim yaratildi. Raqamli hukumatni rivojlantirish, iqtisodiyot va qishloq xojaligi sohalarini raqamlashtirish, IT-parklarni tashkil etish va boshqarish vazifalari toliq ushbu vazirlikka berildi. Vazirlik qoshida alohida Raqamli hukumat loyihibarini boshqarish

²¹ 2017-2021-yillarda Ozbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi boyicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, marifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi togrisida” 2020-yil 2-martdagи PF-5953-sonli Farmoni// “Xalq sozi” gazetasi. 2020-yil 3-mart. № 45 (7547) 1-2 b.



markazi faoliyati yolga qoyildi. Songgi yillar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari barcha sohalarda, birinchi navbatda, davlat boshqaruvi, talim, sogliqni saqlash va qishloq xojaligidagi keng joriy etilgani bilan ajralib turadi.

Hozirda raqamli hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari ichki bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklar tashkil qilish va ushbu sohani malakali kadrlar bilan taminlash kozda tutilgan 200 dan ortiq ustuvor loyihamaliga amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli hukumat va raqamli iqtisodiyot sohalarini kelgusida kadrlar bilan taminlashda IT oliv talim muassasalarning orni va samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etib boryapti.

Ozbekistonda Raqamli hukumatni rivojlantirishning konseptsiyasi allaqachon amalga oshirila boshlangan va birinchi navbatda, fuqarolar va biznes uchun qulay davlat xizmatlari tizimini, davlat bilan ozaro aloqalarni yuqori darajada avtomatlashtirishni, kerakli malumotlarga kirish uchun yagona portalning royxatdan otish jarayonlari yuqori tezligini taminlagan holda jismoniy va yuridik shaxslarga kerakli hujjatlar taqdim etilishi kabilarni kozda tutadi.

Bu jarayonlar “Raqamli Ozbekiston-2030” strategiyasi bilan mutahkamlab qoyilgan. Strategiyadan asosiy maqsad respublikamizda raqamli sanoatni jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardosh afzalliklarini oshirish, shuningdek, 2017—2021-yillarda Ozbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi boyicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish boyicha davlat dasturida belgilangan vazifalar bajarilishini taminlashdir.

Raqamli hukumatni rivojlantirish xalqaro indeksi metodologiyasini va ushbu sohadagi yetakchi mamlakatlarning tajribasini organish boyicha tahlil-tadqiqotlar allaqachon boshlab yuborilgan. Tadqiqot rejasida belgilangan vazifalarning puxta va oz vaqtida bajarilishini taminlash uchun chetdan ekspert jalb qilindi, elektron hukumat sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish uchun Janubiy Koreya bilan muntazam aloqalar yolga qoyilgan.²²

Shu orinda, 2022-yilgi statistikani etiboringizga havola etmoqchimiz: Juhon bankining “GovTech” reytingida hukumat va davlat xizmatlari sektori bo‘yicha mamlakatimiz 37 pog‘onaga yuqorilab, 198 mamlakat ichida 43-o‘rinni, raqamli ko‘nikmalar va davlat xizmatlaridagi innovatsiyalar bo‘yicha esa 65 pog‘ona yuqorilab, 4-o‘rinni egalladi. “Open data Inception”ning 2022-yilgi tahliliga ko‘ra,

²² <https://xabar.uz/xskj>



O'zbekiston dunyoning 201 ta mamlakatlari orasida ochiq ma'lumotlar manbalari va ular soni bo'yicha 124 ta ochiq ma'lumotlar manbalari bilan 4-o'rinni egallagan.²³

Bundan tashqari, BMTning elektron hukumatlarning rivojlanish darajasi boyicha 2022-yilgi reytingida Ozbekiston 18 pogonaga kotarilib, 193 ta davlat ichida 69-orinni egalladi²⁴. Malumot uchun 2020-yilda mamlakatimiz 87-orinni egallagan edi. Umid qilamizki, kelgusi yillardagi reytingda mamlakatimiz yanada yuqori pogonalarni zabit etadi. Qolaversa, bu borada ommaviy axborot vositalari xodimlarining ham xizmati bor.

Birgina misol, otgan yil davomida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz)da oltmis sakkizta yangi onlayn xizmatlar ishga tushirilib, umumiy elektron davlat xizmatlari soni uch yuz oltmis sakkiztaga yetdi. Shulardan ikki yuz qirq ikkitasi tadbirkorlar uchun moljallangan bolsa, ikki yuz yigirma beshtasi fuqarolarimiz uchun joriy qilingan. ikki yuz qirqta xizmatdan esa bepul foydalanish imkoniyati mavjud. Barcha pullik xizmatlardan my.gov.uz orqali foydalanilganda esa 10 foiz chegirma belgilangan.

Mana shunday xizmatlar haqida, yaratilayotgan qulayliklar haqida xalqimiz mass media orqali boxabar bolishmoqda. Shu bois ham 2022-yilda 12 milliondan ziyod aholi va tadbirkorlarimiz elektron davlat xizmatlaridan my.gov.uz orqali foydalanishga muvaffaq bolishdi.

[My.gov.uz](http://my.gov.uz) dan foydalanish gender statistikasida erkaklar — 57,6 foizni, ayollar — 42,4 foizni tashkil etmoqda. Yosh boyicha eng kop foydalanuvchilar soni 25-34 yoshlarga togri keladi. Bundan tashqari, yurtdoshlarimiz ommaviy axborot vositalari orqali nafaqat yangi xizmatlar haqida boxabar bolishlari, balki undan qanday va qay tartibda foydalanish mumkinligi haqida ham bilib olishlari mumkin.

Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida xizmatlardan nafaqat kompyuter qurilmalari orqali, balki qolimizdagи oddiy smartfon orqali ham foydalanish imkoniyatini beruvchi my.gov.uz mobil ilovasi ham mavjud bolib, otgan bir yil ichida ushbu mobil ilovada ellik turdagи yangi elektron davlat xizmatlari joriy qilindi va ular soni jami bir yuz oltmishtaga yetkazildi. Ushbu xizmatlarning yigirma ikkitasidan ilovada royxatdan otmasdan turib, toqson ikkitasidan esa bepul foydalanish mumkin boldi.

Raqamli hukumat tizimidagi axborotlar almashinuvida Yagona identifikatsiya tizimi — OneID ning orni katta. Tizim foydalanuvchilar 7 millionga yetib, kuniga royxatdan otuvchilar soni 4 000 dan ortiqni tashkil etmoqda. Davlat xizmatlaridan

²³ <https://www.worldbank.org/en/programs/govtech/2022-gtmi>

²⁴ <https://publicadministration.un.org/en/Research/UN-e-Government-Surveys>



foydalanishni yengillashtirish maqsadida MobileID tizimi orqali identifikatsiya qilish imkoniyati ham yaratildi.

Shular qatorida, 2022-yil davomida elektron davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish ortidan aholining 36 mlrd.dan ortiq mablaglari tejalishiga erishildi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı foydalanuvchilari soni 2022-yilda keskin ortib, 1.1 mln.dan 4 mln.ga yetdi. Bunda fuqarolarimizning vaqtি va mablagi tejalishiga, davlat idoralariga bevosita tashrifini qisqartirishga bosqichma-bosqich erishilmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy sohalarga doir xizmatlarni takomillashtirishga bolgan etibor ham yanada kuchaytirildi. Xususan, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kirgan hamda I va II guruh nogironligi bolgan shaxslarga my.gov.uz xizmatlarini korsatishda davlat bojlari uchun ellik foiz chegirma yolgа qoyildi.

Otgan yilning 1-oktyabr sanasidan boshlab 18 yoshgacha nogironligi bolgan bolalar va odam immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka chalingan on sakkiz yoshgacha bolalarga toladanigan nafaqalarni hamda parvarishlash nafaqasini fuqarolardan qoshimcha hujjatlarni talab etmagan holda “proaktiv shakl”da tayinlash tizimi joriy etildi. Bugungi kunda mazkur tizim orqali uch mingdan ortiq nafaqalar tayinlandi.²⁵ “Elektron hukumat: jamiyat rivoji poydevori” mavzusida bolib otgan soha faoliyati tahliliga bagishlangan matbuot anjumanidan tayyorlangan maxsus reportaj 2022-yil 26-dekabr sanasida “Xabar.uz” YouTube kanali orqali efirga uzatildi.

Shuningdek, matbuot anjumanida yil davomida aholi tomonidan my.gov.uz orqali eng kop foydalanilgan TOP-3 xizmatlar sanab otildi: “Bolani davlat maktabgacha talim muassasasiga joylashtirish”;

- “Kredit tarixini bilish”, “Avtotransport oynalari tusini qoraytirishga ruxsatnomalish”;

- Tadbirkorlar tomonidan eng kop foydalanilgan TOP-3 xizmatlar sifatida “Tashqi iqtisodiy faoliyatga tegishli shartnoma malumotlarini tizimga kiritish”;

- “Avtomobil transportida yolovchilarni va yuklarni xalqaro yonalishlar boyicha tashishga litsenziya olish”;

- “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishishga ariza berish” shular jumlasidandir.²⁶

My.gov.uz xizmatlarining bu qadar ommalashishi ham bejizga emas. Ayniqsa, yurtdoshlarimiz bu kabi malumotlardan nafaqat portalning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalaridan, balki “Xabar.uz” axborot portalı orqali ham doimiy ravishda

²⁵ <https://youtu.be/1MVM51xJvSc>

²⁶ <https://www.facebook.com/uzreport.tv/videos/2119345388266828/>



xabardor bolib, malum bir konikmalarga ega bolib borishsa, "Ozbekiston 24" va "Uzreport tv" telekanallarining togridan-togri efirlari orqali esa birinchilardan bolib boxabar bolishmoqda. Bunday shaffoflik esa xalq va davlat idoralarini bir-biri bilan yanada yaqinroq qiladi.

Otgan yillar davomida aholining talab va istaklarini organish mobaynida soha mutasaddilari joriy yilda aholi va tadbirkorlik subyektlariga yanada qulayliklar yaratish maqsadida Yagona portalda yanada koplab yangi xizmatlarni ishga tushirishni maqsad qilishgan. Jumladan, 1-sinfga onlayn qabul qilishga ariza yuborish, imtiyozli transport kartasini olish, kochmas mulk tarixi malumotlarini taqdim etish va hokazolar. Shuningdek, avvaldan yolga qoyilgan xizmatlarni yanada soddalashtirish boyicha ham ishlar yana davom ettiriladi.

2023-yildan boshlab yagona portalda maktab bitiruvchilari uchun shahodatnomani elektron tarzda berishni ham joriy qilish ustida ishlar olib borilmoqda. Fikrimcha, oliy talim muassasalarini tamomlaganlik haqidagi diplomni ham faqat elektron shaklda qilishsa, talabalar orasida qizil, kok diplom kabi tabaqalanishning va shuning ortidan bazi bir noqonuniy ishlarga yol qoyilishining oldi olinadi. Qolaversa, qiz bola turmushga chiqqach, turmush ortogining familiyasiga otishiga togri kelsa, bu ham vaqt kelib diplomni ham almashtirish kabi ovora-yu sarsongarchiliklarga olib keladi. Elektron korinishdagi diplomga ozgartirish kiritish esa u qadar kop vaqt ni olmaydi.

Bundan tashqari eski namunadagi yoki muddati tugagan haydovchilik guvohnomasini yangisiga almashtirish jarayonlarining onlayn qilinganligi ham shaxsiy ishlaridan ortib davlat idoralariga bora olmayotgan yurtdoshlarimiz uchun juda katta qulaylik berdi.

2023-yil 22-fevral kuni Prezident raisligida bolib otgan raqamlashtirish boyicha 2023-yilgi vazifalar va rejalgarda bagishlangan videoselektor yigilishi "Ozbekiston 24" telekanali orqali togridan-togri efirga uzatildi. Yigilishda songgi uch yil davomida IT sohasiga qaratilgan jiddiy etibor natijasi olaroq, malum ozgarishlarga erishilgani takidlandi. Jumladan, raqamlashtirish natijasida aholidan yetmishdan ortiq turdag'i malumot va hujjatlar talabi bekor qilindi.

Toshkent shahrida aholi muammolarini hal qilishga qaratilgan portal ishga tushirilganligini inobatga olgan holda, Toshkentning Raqamli rivojlanish departamentini Raqamlashtirish vazirligiga otkazilishi belgilandi. Mazkur departament endilikda respublikaning barcha hududlarini raqamlashtirishga masul boladi.



Shunindek, davlatimiz rahbari barcha biznes jarayonlarini hamda aholi uchun eng zarur xizmatlarni toliq raqamlashtirib, ozaro integratsiya qilish vazifasini qoydi. Bundan tashqari:

- aholi va tadbirkorlarga korsatilayotgan elektron xizmatlar boyicha yigirma oltita axborot tizimini yagona davlat xizmatlari portali bilan birlashtirish;
- ushbu portal orqali korsatilayotgan xizmatlarni hozirgi uch yuz yetmishtadan besh yuz yetmishtaga yetkazish;
- yangi avtotransportlarni onlayn davlat royxatidan otkazish va raqam berish tizimini joriy qilish;
- yana sakkiz turdag'i notarial harakatlarni onlayn shaklga otkazish;
- jami on bir mingga yaqin suv xojaligi obyektlarida suv hisobini yuritishning raqamli tizimini joriy etish;
- ikki mingdan ziyod meliorativ kuzatuv quduqlarini avtomatlashgan monitoring tizimiga otkazish;
- barcha tibbiyat muassasalarini lokal tarmoq bilan qamrab olish, ularni kompyuterlar bilan toliq jihozlash;
- tibbiyotni raqamlashtirish boyicha ellik million dollarlik loyihani boshlash vazifalari ham qoyildi.²⁷

Bunday qulayliklar va imkoniyatlarning yaratilayotgani yaxshi, ammo yuqorida etiboringizga havola etilayotgan xizmatlar haqida hamma ham toliq malumotga ega emas. Xalq bu qulayliklardan xabar topgani bilan bazi tashkilotlarda hamon qogozboziklarga barham berilmayotganligi jamoatchilikni qattiq tashvishga solmoqda. Elektron variantdagi malumotnomha, hujjatlarni tan olmayotgan bazi bir qoshtirnoq ichidagi tashkilotlar va fuqaro sifatida oz haq-huquqlarini bilmay, qonun bilan tasdiqlangan qulay xizmatlardan foydalana olmayotgan yurtdoshlarimizni bunday yangililar va ularning afzalligi haqida boxabar qilish biz ommaviy axborot vositalari xodimlarining vazifamiz va burchimizdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ozbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish togrisida”gi Qonuni, 2003-yil 11-dekabr, ORQ-560-son (keyinchalik kiritilgan ozgartirish va qoshimchalarni hisobga olgan holda) <https://lex.uz/docs/-83472>

²⁷ https://youtu.be/T9k_l4Z9348



2. Ozbekiston Respublikasi "Elektron hukumat togrisida"gi Qonuni, 2015-yil 9-dekabr, ORQ-395-son (keyinchalik kiritilgan ozgartirish va qoshimchalarni hisobga olgan holda) <https://lex.uz/docs/-2833860>

3. 2017-2021-yillarda Ozbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi boyicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, marifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi togrisida" 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli Farmoni// "Xalq sozi" gazetasi. 2020-yil 3-mart № 45 (7547) 1-2 b.

4. <https://xabar.uz/xskj>
5. <https://www.worldbank.org/en/programs/govtech/2022-gtmi>
6. <https://publicadministration.un.org/en/Research/UN-e-Government-Surveys>

7. <https://youtu.be/1MVM51xJvSc>
8. <https://www.facebook.com/uzreport.tv/videos/2119345388266828/>
9. https://youtu.be/T9k_I4Z9348